

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Nukus "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyida 2026-yil 25-aprel kuni o'tkazilgan navbatdagi ilmiy-pedagogik kengashning

## **№ 10-sonli Bayonnomasidan ko'chirma**

**Nukus shahri**

**Kengash raisi:** Harbiy-akademik litsey direktori, podpolkovnik U. Kadirov.

**Qatnashganlar:** Direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari J. Pirekeev.  
O'quv bo'limi boshlig'i Q. Djumaniyazov.  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar o'quv qismi boshlig'i Sh. Tanirbergenov.  
Aniq fanlar o'quv qismi boshlig'i A. Mamutov.  
Harbiy-akademik litsey xodimlari va o'qituvchilar.

**Kengash kotibi:** O'quv bo'limi uslubchisi M. Jumabayev.

### **KUN TARTIBI:**

5. Har xil masalalar.

a) harbiy-akademik litseyda to'garaklar faoliyati haqida.

#### **Tinglandi:**

Ilmiy-pedagogik kengashni harbiy-akademik litsey direktori, podpolkovnik U.Kadirov kirish so'zi bilan ochib berdi va olib bordi. Bugungi ilmiy-pedagogik kengashda bayonot qiluvchilardan to'garaklar faoliyati haqida to'garak rahbari S.Qadirimbetov so'zga chiqib, harbiy-akademik litseyda faoliyat yuritayotgan havaskorlik to'garaklari doirasida o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish maqsadida muntazam ravishda turli musobaqalar, ko'rgazmalar, tanlovlar va loyihalar tashkil etilib kelinmoqdaligi, jumladan, 2025/2026-o'quv yili davomida harbiy-akademik litseyida havaskorlik to'garaklarida ishtirok etayotgan o'quvchilar Respublika miqyosida o'tkazilgan bir qator musobaqa va tanlovlarda hamda ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqdaligi, xususan, "Zakovat" to'garagi a'zolari intellektual o'yin bo'yicha "Talaba-o'quvchilar ligasi" sinxron turnirlarining 2025/2026-yilgi kuzgi va bahorgi mavsumlarida faxrli o'rinlarni egallab, maxsus "Sertifikat"ni qo'lga kiritishga erishib, "Yosh rassomlar" to'garagi a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Rus madaniyat markazi tomonidan rus shoiri va yozuvchisi Sergey Yesenin tavalludining 130 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan rasmlar tanlovida faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallagan, shuningdek, "Yosh notiqalar" to'garagi a'zolari harbiy-akademik litsey miqyosida tashkil etilgan tadbirlarda boshlovchilik hamda sahna ko'rinishlarida ishtirok etishlari orqali litsey rahbariyati tomonidan alohida rag'batlantirilib, umuman olganda yuqoridagi yutuqlar munosabati bilan faol o'quvchilar harbiy-akademik litsey ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq, diplom, esdalik sovg'alari hamda tashakkurnomalar bilan taqdirlanib, hattoki ularning ota-onalariga minnatdorchilik xatlari ham yuborilib turishini aytib o'tdi.

**Ilmiy-pedagogik kengash yuqoridagi kun tartibida ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan quyidagicha**

### **QAROR QILINDI:**

1. Ilmiy-pedagogik kengashda o'qilgan bayonotlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Harbiy-akademik litseydagi mavjud to'garaklarga a'zo bo'lgan o'quvchilarning turli musobaqa va ko'rik-tanlovdagi ishtiroki, har xil ko'rgazma loyihalarda faol qatnashib erishgan natijalariga qarab egallagan o'rni va loyiq qatnashgan o'quvchilar munosib tarzda rag'batlantirilsin.

3. Harbiy-akademik litseyda va boshqa ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan musobaqa va ko'rik-tanlovlarda litsey o'quvchilarining munosib ishtiroki ta'minlab borilsin.



to'g'ri

**M. Jumabayev**